Sa'dullayeva Nafisa Ilhomjon qizi, Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalar iqtidorini rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik talqini	594
Sapayeva Gulnoz Azimbayevna	
Zamonaviy va an'anaviy tarbiya uslublarining maktabgacha yoshdagi bolalarga psixologik ta'siri. O'zbekiston oilalarida qiyosiy tahlil	600
Tursunova Aziza Ixtiyorovna	
Tarbiyachi faoliyatida tarbiyalanuvchi shaxsni rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari	603
Yusupova Vasila Yangibayevna	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	606
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar	609
O'rmonov Elmurod Mamasoliyevich	

TEATR PEDAGOGIKASINING BO'LAJAK TARBIYACHILAR KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Nurova Rohila Ismoil qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada teatr pedagogikasining maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak tarbiyachilar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada teatr pedagogikasining maktabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishi malaka talablari bilan uyg'unligi ochib berilib, uning ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari teatr pedagogikasini bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda samarali va innovatsion pedagogik yondashuv sifatida qo'llash maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: teatr pedagogikasi, maktabgacha ta'lim, bo'lajak tarbiyachi, kasbiy kompetensiya, dramatisatsiya, rol o'ynash, improvizatsiya, pedagogik artistizm, emotsional intellekt.

Abstract: This article analyzes the role of theatre pedagogy in the development of professional competencies of future preschool educators from theoretical and practical perspectives. The study reveals the alignment of theatre pedagogy with the qualification requirements of the bachelor's degree program in Preschool Education and highlights its significance in the effective organization of the educational process. The research findings confirm the relevance of applying theatre pedagogy as an effective and innovative pedagogical approach in preparing future preschool educators for professional practice.

Key words: theatre pedagogy, preschool education, future preschool educator, professional competence, dramatization, role-playing, improvisation, pedagogical artistry, emotional intelligence.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируется роль театральной педагогики в развитии профессиональных компетенций будущих воспитателей по направлению дошкольного образования. В статье раскрывается соответствие театральной педагогики квалификационным требованиям бакалавриата по направлению "Дошкольное образование" и показана её значимость в эффективной организации учебно-воспитательного процесса. Результаты исследования подтверждают целесообразность применения театральной педагогики как эффективного и инновационного педагогического подхода в подготовке будущих воспитателей к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: театральная педагогика, дошкольное образование, будущий воспитатель, профессиональная компетентность, драматизация, ролевая игра, импровизация, педагогический артистизм, эмоциональный интеллект.

KIRISH

Teatr pedagogikasi XX asr o'rtalarida teatr san'ati va pedagogikani birlashtirgan mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. U dastlab maktablarda drama va teatr elementlarini o'quv jarayoniga kiritish orqali rivojlandi, keyinchalik esa yanada kengroq maqsadni ko'zladi: shaxsning ijodiy salohiyatini, kommunikativ qobiliyatlarini hamda ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirish. Teatr pedagogikasi an'anaviy teatr san'atidan farqli ravishda tomoshabinlar uchun emas, balki ishtirokchilarni tarbiyalash, ularni shaxsiy va kasbiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan faoliyat sifatida shakllangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Teatr pedagogikasining rivojlanishida Germaniya maktabi yetakchi rol o'ynadi. Hans-Wolfgang Nickel 1959-yilda "Berlin Stage Teachers" tashkilotini tuzib, teatr o'yinlari va pedagogik faoliyatni uyg'unlashtirish bo'yicha dastlabki tizimlashtirilgan tajribalarni amalga oshirdi. U 1974-yildan boshlab Berlin pedagogika universitetida teatr va ta'lim sohasida professor sifatida faoliyat yuritdi. Shuningdek, Hans Martin Ritter tomonidan



Bertolt Brechtning “o'yin orqali o'qitish” yondashuvi maktab muhitida amalda sinovdan o'tkazildi hamda teatr elementlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha milliy dasturlar ishlab chiqildi [7].

Braziliyalik teatr arbobi va pedagog Augusto Boal teatr pedagogikasining ijtimoiy-siyosiy yo'nalishini shakllantirdi. U yaratgan “Zulmga qarshi teatr” (“Theatre of the Oppressed”) modeli bugungi kunda 70 dan ortiq mamlakatda ijtimoiy adolat, hamkorlik va fuqarolik faolligini rivojlantirishda qo'llanilmoqda [2]. Ushbu model teatrning ijtimoiy o'zgarishlar vositasi sifatida ham samarali ekanini isbotladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida teatr pedagogikasining turli yo'nalishlari jadal rivojlandi. Jak Lekok (Jacques Lecoq) Parijda 1956-yilda tashkil etgan maktabida jismoniy teatr, jest va harakat pedagogikasini ishlab chiqdi [6].

Jerji Grotovskiy (Jerzy Grotowski) esa aktyorlik san'atini psixofizik tayyorgarlikka asoslangan eksperimental teatr orqali rivojlantirdi [3].

Yuriy (Jurij) Alschitz “uzluksiz trening” metodini joriy etib, aktyorlik va pedagogik tayyorgarlikning yangi modelini taklif qildi.

Kristel Xofmann (Christel Hoffmann) esa bolalar va yoshlar teatr pedagogikasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shdi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda teatr pedagogikasi maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorlashda muhim o'rin egallaydi. Ushbu yo'nalishda bo'lajak tarbiyachilar nafaqat bolalarni tarbiyalash va o'qitish metodlarini, balki ijodiy fikrlash, emotsional intellekt hamda kommunikativ ko'nikmalarni ham egallashlari zarur. Teatr pedagogikasi bo'lajak tarbiyachilarning:

- pedagogik muloqoti va sahna madaniyatini rivojlantiradi;
- rol o'ynash, dramatisatsiya va improvizatsiya kabi metodlar orqali bolalar bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi;
- shaxsiy ishonch, kreativlik va jamoada ishlash kabi kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Teatr pedagogikasining nazariy va amaliy asoslari shaxs rivojlanishida teatrning o'rnini chuqur asoslab beradi. Jumladan, O. A. Eristavi teatr faoliyatining bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: “Bola teatr makoniga kirganida, u hali tasavvuriga sig'magan yoki teatr muhitidan tashqarida faqat kattalarning nashatlari orqali bilib olishi mumkin bo'lgan muammolarni bevosita his etish va boshdan kechirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Muayyan sahna harakatini boshidan kechirar ekan, kichik aktyor yoki tomoshabin ilgari faqat nazariy bilgan hayotiy hodisalarni real hayot bilan identifikatsiya qilish imkoniga ega bo'ladi. Shu orqali u atrofida yuz berayotgan voqealarga nisbatan mustaqil munosabat bildirish vositasini qo'lga kiritadi” [8]. Mazkur fikr teatr pedagogikasining nafaqat bolalar tarbiyasidagi, balki maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorlashdagi ahamiyatini ham yoritadi. Chunki bo'lajak tarbiyachi sahna orqali bolalarning his-tuyg'ularini, xulq-atvorini va dunyoqarashini yo'naltirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonida teatr metodlaridan samarali foydalana olishi lozim.

Talabalar teatr muhitida nafaqat o'z kasbiy mahoratini oshiradilar, balki pedagogik muloqot ko'nikmalarini, emotsional intellektini, ijodiy ifoda va sahnada o'zini erkin tutish mahoratini, shuningdek, bolalar bilan ishlashda rol o'ynash va dramatisatsiyadan foydalanish malakalarini ham rivojlantiradilar. Shunday qilib, teatr pedagogikasi nazariy jihatdan mustaqil fan sifatida shakllangan bo'lsa, amaliyotda u maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarni bolalar bilan ijodiy ishlashga tayyorlashning samarali vositasi sifatida o'z ahamiyatini isbotlamqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aytish mumkinki, teatr pedagogikasi rivojida teatr san'ati ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv sifatida joriy etilib, talabalarda bir nechta muhim kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Teatr san'ati orqali talabalar kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish va emotsional intellektini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, chunki ular o'z tajribalarini nafaqat og'zaki nutq orqali, balki tana tili, mimika, ritm va dramatik ifoda yordamida ham ifodalashni o'rganadilar. Bu jarayonda talaba jismoniy harakatlar orqali ham fikr-mulohazalarini yetkaza oladi va umumiy pedagogik qobiliyatlarini mustahkamlaydi [5].

Shuningdek, teatr mashg'ulotlari talabalar o'rtasida hamjihatlik va jamoaviylik ko'nikmalarini rivojlantiradi, chunki ular hamkorlikda ishlash, birgalikda maqsad sari harakat qilish, rollarni taqsimlash va umumiy loyiha ustida jamoa bo'lib faoliyat yuritishni talab etadi [5].

Teatr pedagogikasi talaba shaxsida empatiya va ijodkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi, zero turli obrazlarni his etish, boshqalarning nuqtai nazarini anglash, ularning psixologik holatini tushunish va qadrlash jarayonlari ijodiy erkinlik va fantaziyaning kuchayishiga olib keladi [5].

Teatr pedagogikasi pedagogika fanining alohida sohasi bo'lib, o'ziga xos metodologik yondashuvlari, texnikalari va amaliy vositalari bilan boshqa pedagogik yo'nalishlardan ajralib turadi. O'quv jarayoni pedagogik dramaturgiya va rejissura elementlari asosida tashkil etilib, bunda pedagog talabalarning hissiy va aqliy holatini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini rejalashtiradi va boshqaradi, natijada talabalar bilimlarni egallash bilan birga o'zlarini erkin ifoda etish, emotsional va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar^[9].

Teatr pedagogikasida pedagogning shaxsiy ifodasi, aktyorlik mahorati va sahna harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki pedagog aktyorlik mahoratini pedagogik vaziyatlarga mos ravishda qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv talabalar bilan bevosita ijodiy va hissiy o'zaro ta'sirga asoslanib, ularda o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalash, boshqalar bilan hamjihatlikda ishlash va jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Aktyorlik psixotexnikasi va sahna plastikasining pedagogik jarayonda qo'llanilishi talabalarning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilab, tana tilini va mimikani boshqarish, jismoniy harakatlarni muvofiqlashtirish hamda sahna madaniyatini egallashga yordam beradi.

Teatr pedagogikasining maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ilmiy-amaliy asoslarini tahlil qilar ekanmiz, kasbiy kompetensiyaning umumkasbiy, maxsus, shaxsiy va pedagogik yo'nalishlari o'zaro uyg'unlikda shakllanishini ko'ramiz. Umumkasbiy kompetensiya pedagogik faoliyatga oid umumiy bilim va ko'nikmalarni, jumladan o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyalari va pedagogik psixologiyani qamrab olsa, maxsus kompetensiya teatr pedagogikasi sohasiga xos bo'lgan sahna harakatlari, aktyorlik mahorati va nazariy asoslarni o'z ichiga oladi. Shaxsiy kompetensiya o'zini anglash, emotsional intellekt, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy rivojlanish bilan bog'liq bo'lsa, pedagogik kompetensiya ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilar bilan muloqot qilish va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim agentligining 2023- yil 9- oktabrda qabul qilingan 124- sonli buyrug'iga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi lavozimi uchun belgilangan malaka talablari asosida teatr pedagogikasi talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Teatr pedagogikasi orqali talabalar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish, davlat talablari va o'quv dasturlarini amaliyotga tatbiq etish, sahna va dramatik vaziyatlar orqali pedagogik jarayonni samarali olib borish, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni ishlab chiqish, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish, shaxsiy va professional kompetensiyalarni mustahkamlash, xavfsizlik va sanitariya qoidalariga rioya etish hamda ta'limning zamonaviy shakl va usullarini qo'llashga tayyorlanadilar. Teatr vositalari yordamida sahnalashtirish, dramatik o'yinlar, vizual va didaktik materiallardan foydalanish orqali bolalarni maktabga tayyorlash, ularning ijtimoiy, intellektual va estetik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi maktabgacha ta'limni o'yin, ijodiy faoliyat, tasviriy-musiqiy hamda nutq-muloqot faoliyatlari integratsiyasida tashkil etishni belgilaydi; bu esa dramatisatsiya va rol o'yinlarini didaktik vosita sifatida qo'llash uchun normativ asos yaratadi. Davlat talablari esa maktabgacha ta'lim uchun kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari mazkur yondashuvlarga muvofiq kompetensiyalarni shakllantirishini talab qiladi. Shunday qilib, teatr pedagogikasi nafaqat talabalarni kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga, balki ularga ijodiy va hissiy jihatdan boy pedagogik tajriba berishga xizmat qiladi. Bu jarayonda talabalar kelgusida tarbiyachi lavozimida bajarishi lozim bo'lgan barcha amaliy vazifalarni, jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, bolalar bilan individual yondashuvni amalga oshirish, xavfsizlikni ta'minlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni o'rganadilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, teatr pedagogikasi shaxsning ijodiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan samarali pedagogik yondashuv sifatida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, dramatisatsiya, rol o'ynash, improvizatsiya va sahnalashtirish kabi teatr elementlari talabalarda kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kommunikativ, ijodiy, tashkiliy va empatik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Dramatisatsiya jarayonida talabalarda hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarga ijodiy yondashish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllansa, rol o'ynash jarayonida talabalar boshqa inson nuqtai nazarini qabul qilish, empatiya va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Improvizatsiya elementlari tezkor qaror qabul qilish, moslashuvchanlik va ijodiy tashabbusni kuchaytirishga xizmat qilsa, sahnalashtirish jarayonida talabalar jamoaviy ishni tashkil etish, liderlik fazilatlarini rivojlantirish, tashkiliy mahorat hamda estetik didni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tariqa, teatr pedagogikasi elementlaridan foydalanish talabalarda nafaqat shaxsiy rivojlanishni, balki kasbiy kompetensiyalar majmuini – kommunikativ, tashkiliy, ijodiy va refleksiv kompetensiyalarni – shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Oliy pedagogika ta'lim muassasalarida 60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talabalaridan kelib chiqib, bo'lg'usi tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda teatr pedagogikasining o'рни alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim standartlariga ko'ra, 60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishi bitiruvchilari Milliy malaka ramkasining 6-darajasiga muvofiq peda-



gogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy hamda tashkiliy-boshqaruv faoliyatida samarali ishlashga qodir bo'lishlari belgilangan. (Mazkur malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar hamda kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi ^[1].) Ushbu malaka talablarida o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, o'zlashtirishni baholash, xavfsiz ta'lim muhitini yaratish, o'z-o'zini rivojlantirish hamda ota-onalar bilan hamkorlik qilish kabi vazifalar alohida ko'rsatib o'tilgan. Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda teatr pedagogikasi muhim amaliy vosita hisoblanadi. Chunki teatr metodlari – dramatizatsiya, rol o'ynash, improvizatsiya va sahnalashtirish – talabalarda nafaqat shaxsiy, balki kasbiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Malaka talablariga muvofiq, quyidagi faoliyatlar orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish belgilab ko'rsatilgan.

Pedagogik faoliyatda: Dramatizatsiya va rol o'ynash mashg'ulotlari talabalarni differensial va kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg'ulot texnologiyalarini ishlab chiqishga tayyorlaydi. Teatr elementlari orqali talabalar faol o'qitish usullarini amalda sinab ko'radilar hamda bolalarda mustaqil fikrlash, motivatsiya va ijtimoiy-hissiy muloqotni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni o'zlashtiradilar. 60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishining malaka talablaridan kelib chiqib, 1-bosqichda "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" fani maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur fan doirasida talabalar teatr pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini o'zlashtirib, teatr elementlari orqali faol o'qitish usullarini amaliyotda sinab ko'radilar. Natijada bolalarda mustaqil fikrlash, ichki motivatsiya hamda ijtimoiy-hissiy muloqotni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali metodlarni egallaydilar. Dramatizatsiya, rol o'ynash, improvizatsiya va sahnalashtirish mashg'ulotlari talabalarda pedagogik-ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirib, ularning tasavvur doirasi va ijodkorlik salohiyatini kengaytiradi. Shuningdek, ushbu jarayon hamkorlikda ishlash, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos pedagogik texnologiyalarni tanlash hamda ularni ta'lim-tarbiyaviy jarayon bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, mazkur fan talabalarni nafaqat teatr san'ati vositalaridan samarali foydalanishga, balki ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyalash orqali bolalarda kompetensiyaviy rivojlanishni ta'minlashga tayyorlaydi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida: Teatr metodlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar ilmiy tadqiqotlarda fanlararo integratsiya va bolalar rivojlanishini tahlil qilish uchun muhim amaliy material vazifasini bajaradi. Bu esa talabalarni olingan ilmiy natijalarni pedagogik amaliyotga tatbiq etishga yo'naltiradi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda: Sahnalashtirish jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va axloqiy tamoyillarni singdirish imkoniyati yaratiladi. Shu orqali talabalar yosh avlodga vatanparvarlik, axloqiy fazilatlar va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish metodlarini puxta o'zlashtiradilar.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida: Teatr asosida tashkil etilgan jamoaviy faoliyat jarayonida talabalar liderlik, qaror qabul qilish va nizoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularni ta'lim jarayonida hamkorlik va boshqaruvni samarali tashkil etishga tayyorlaydi. Demak, teatr pedagogikasi maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham chuqurlashtirib, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydi.

60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavrlariga qo'yilgan malaka talablari va teatr pedagogikasining kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni quyidagi jadval asosida yoritiladi (1-jadval).

1-jadval: 60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavrlarining malaka talablari va teatr pedagogikasi orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar

Malaka talablari	Teatr pedagogikasi orqali shakllantiriladigan ko'nikmalar va kompetensiyalar
Pedagogik faoliyat: ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va samarali tashkil etish	Dramatizatsiya, rol o'ynash va improvizatsiya asosida o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish; pedagogik muloqot va kreativ metodlardan foydalanish
Bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish: psixologik va yosh xususiyatlariga mos yondashuv	Sahna mashqlari orqali bolalar his-tuyg'ularini anglash, empatiya va differensial yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish
Jamoaviy va kommunikativ kompetensiyalar: ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot	Jamoaviy teatr faoliyati orqali hamkorlik, mas'uliyat, liderlik va muloqot madaniyatini shakllantirish
Shaxsiy va professional rivojlanish: nutq, artistizm, estetik did va axloqiy tarbiya	Pedagogik artistizm, sahna madaniyati va plastikasini egallash, emotsional intellektni rivojlantirish



Xavfsizlik va sanitariya qoidalarini ta'lim muhitida xavfsizlikni ta'minlash	Teatr jarayonida bolalar xavfsizligi va sahna sharoitida sanitariya qoidalariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish
Zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash	Sahnalashtirish, vizual vositalar, kreativ drama va process-drama metodlari orqali kompetensiyaviy rivojlantirish
Ilmiy-tadqiqot faoliyati	Teatr tajribalarini ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'llash, bolalar rivojlanishini kuzatish va tahlil qilish
Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat	Sahnalashtirish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, axloqiy tarbiya berish
Tashkiliy-boshqaruv faoliyati	Teatr loyihalari orqali liderlik, qaror qabul qilish va nizoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, teatr pedagogikasi maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda nafaqat ijodiy, emotsional va kommunikativ rivojlanish vositasi, balki nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiruvchi samarali mexanizm sifatida ham alohida o'rin egallaydi. U pedagogik, shaxsiy, maxsus va umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Dramatizatsiya, rol o'ynash, improvizatsiya va sahnalashtirish kabi teatr metodlari orqali talabalar ijodiy fikrlash, hamjihatlik, empatiya, tashkiliy-boshqaruv ko'nikmalari, nutq madaniyati hamda emotsional intellektni rivojlantiradi va bo'lajak tarbiyachi sifatida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga tayyor bo'ladilar. Shu tariqa, teatr pedagogikasi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ularni maktabgacha ta'lim tizimi uchun yuqori malakali mutaxassis sifatida yetishtirishda innovatsion va dolzarb yondashuv sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yilda ishlab chiqilgan 60110200 – maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talabarlari.
2. Boal, A. (1979). Theatre of the Oppressed. Pluto Press.
3. Grotowski, J. (1968). Towards a Poor Theatre. Methuen.
4. Hoffmann, C. (1991). Kinder- und Jugendtheaterpädagogik. Frankfurt am Main.
5. <https://www.theroyalgeorgetheatre.com/>
6. Lecoq, J. (2000). The Moving Body: Teaching Creative Theatre. Routledge.
7. Nickel, H.-W. (1974). Theaterpädagogik in der Schule. Berlin.
8. Эристави Ольга Александровна. Театральная педагогика в общеобразовательном учреждении как универсальное средство активизации творческих ресурсов молодого человека.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.